

AMALIY BEZAK SAN'ATIDA SHAKL VA MAZMUN

Qahhorova Dilafruz Farhodovna

*Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Pedagogik ta'lim fakulteti,
San'atshunoslik" kafedra II bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekistonning amaliy bezak san'ati uning turlaridan biri bo'lmish naqshlarning turlari ularning ramziy ma'nolari haqida ma'lumot beriladi. Amaliy bezak san'atining asosiy badiiy usullari bo'lmish naqshlar haqida tushuncha berib boriladi. Shuningdek amaliy san'atning bu turi qadimiy bo'lib, asrlar osha takomillashib, rivojlanib kelgan. Bizning davrimizga kelib amaliy bezak san'ati rivojlanib shuhrati dunyoga mashhur bo'lmoqda. Amaliy bezak san'atida naqsh va rang uzviyligi alohida o'rin tutilishi va mohiyatlari haqida ma'lumot beradi .*

Kalit so'zlar: *Xalq amaliy bezak san'ati, badiiy did, ramziy shakllar, grix, islmiy, naqqoshlik san'ati.*

ФОРМА И СОДЕРЖАНИЕ В ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОМ ИСКУССТВЕ

Каххорова Дилафруз Фарходовна

*Бухарский государственный университет Педагогический институт
Факультет педагогического образования, кафедра искусствознания,
магистрант*

Аннотация: *В статье представлена информация о видах узоров и их символическом значении, которые являются одним из видов прикладного декоративно-прикладного искусства Узбекистана. Дано представление об узорах, которые являются основными художественными приемами прикладного декоративно-прикладного искусства. Также этот вид прикладного искусства является древним и веками совершенствовался и развивался. К нашему времени искусство практического декорирования развивается и становится известным во всем мире. Дает информацию об особом месте и сущности узорно-цветовой гармонии в практическом декоративно-прикладном искусстве.*

Ключевые слова: *народное декоративно-прикладное искусство, художественный вкус, символические формы, греческое, исламское, живописное искусство.*



FORM AND CONTENT IN ARTS AND CRAFTS

Kahorova Dilafruz Farhodovna

Bukhara State University Pedagogical Institute Faculty of Pedagogical Education, Department of Art Studies, Master

Annotation: *The article provides information about the types of patterns and their symbolic meaning, which are one of the types of applied arts and crafts in Uzbekistan. An idea is given about patterns, which are the main artistic techniques of applied arts and crafts. Also, this type of applied art is ancient and has been improved and developed for centuries. By our time, the art of practical decoration is developing and becoming known throughout the world. Gives information about the special place and essence of patterned-color harmony in practical arts and crafts.*

Key words: *folk arts and crafts, artistic taste, symbolic forms, Greek, Islamic, pictorial art.*

O'zbek xalq amaliy san'ati qadim zamonlardan beri dunyoning turli joylarida insoniyat madaniyatida o'ziga xos muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson yaralibdiki azal-azaldan o'z makonini bezashga, uni go'zal san'at namunalari bilan boyitishga harakat qiladi. Xalq amaliy san'ati nozik san'at hisoblanib, kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi.

Xalq amaliy san'atining har bir turida uchraydigan ularga go'zallik baxsh etuvchi tasviriy san'at turlaridan biri hisoblangan nozik san'at turi bu naqqoshlikdir. Xalq amaliy san'atida naqqoshlik alohida ahamiyatga ega bo'lib uni xalq amaliy san'atining barcha turlarida uchratish mumkin. O'zbekistonning amaliy bezak san'atini go'zal naqsh bezaklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu san'at turi namunalarning eng oddiydan tortib o'ta murakkablarida ham ramziy ma'no kasb etgan shakllarni ko'rishimiz mumkin. Naqqoshlik san'ati qadimiyligiga diyorimizdagi me'moriy obidalaridagi devoriy rasm va naqshinkor bezaklarni ko'rishimiz mumkin. Me'moriy obidalarimizda naqsh san'atini asosan binolarning ustunlarida, shiftlar, peshtoq va ayvonlarida ko'rishimiz mumkin. O'zbek ustalarining amaliy bezak san'atiga oid asarlarida xalq madaniyati va turmush tarzi o'z aksini topgan. San'atning bu turi juda qadimiy bo'lib asrlar osha rivojlanib, takomillashib kelmoqda.




Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi .Qush, hayvon ,o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilgan bezaklardir .

Naqshlar chizilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi .Bular islamiy va grih naqsh turlari. Islamiy naqshlarda asosan gul va gul barglari, o'simliklarni o'zining ramziy ma'no kasb etuvchi tabiiy shakllarini stillizatsiyalash yani badiiylashtirish orqali naqsh namunalarida badiiylashtirish hisobiga turli tabiiy shakllarning naqsh elementlari sifatida qo'llanishida ham o'ziga xos ramziy ma'no bor . Masalan , naqshda paxta elementining qo'llanilishi mazkur ekinning milliy iftixor tariqasida tarannum etilishi anglatadi.Shu bois ham o'zbek xonadonida bu chinni buyumlarning eng qadrlisi aynan paxta gulli choynak - piyola , kosa- tovoqlardan iboratdir. Naqsh elementlarida anor, olma , bug'doy, uzum va uning yaprog'lari , jonli mavjudod tasvirlari - qo'chqorning shoxi , xo'rozning toji va boshqa tasvirlar ham badiiylashtirilgan holda amaliy bezak san'atida qo'llaniladi . Shuningdek, amaliy san'atda qo'llaniladigan boshqa misollarni ham ko'rsatish mumkin . Masalan: anor - to'kinchilik va to'kin -sochinlik, anorgul- kulolchilik , misgarlik , kashtachilik , to'qimachilik, naqqoshlikda ko'p ishlatiladi . Zirk guli- juda chiroyli yaproqli gul ,O'rta osiyo naqshlarida qadimdan ajdodlarimiz tomonidan osoyishtalk va umriboqiylik ramzi sifatida qo'llanilib kelinadi .Kabutar - tinchlik va osoyishtalik,oygul - baxt iqbol ramzi .Naqqoshlikda g'uncha elementi ham ko'p qo'llaniladi. U hayotning davomiylik ajdodlar o'rnini avlodlar egallab borishini anglatadi. Tabiatdan olingan barg ham naqsh kompozitsiyasini to'ldiruvchi va uning jozibasini oshiruvchi element sifatida qo'llaniladi. Barglarning tabiiy ko'rinishini stilizatsiyalashtirilgan variantlari asosida oddiy vamurakkab barglar ixtiro qilingan.Ular shobarg, qo'shbarg, ko'pbarg , chorbarg (to'tr bargli naqsh elementi) deb ataladi .

Bu g'irih kompozitsiyalarini arxitektura minoralaridan tortib, kitob muqovalarigacha bezatilganligini guvoxi bo'lamiz. O'sha davr uchun g'irihni chizmachilik asboblari,sirkul chizg'ichlar matematik formulalari asosida ishlanishi katta ilmiy kashfiyot edi. Naqqoshlik san'atida Toshkent, Farg'ona ,Xiva naqsh maktablariga bo'linadi.Ularda o'zbek xalq amaliy bezak xususiyatlari bilan birga mahalliy o'ziga xoslik mavjud.

Bu maktablarning kompozitsiya uslubi va rang berishdagi o'ziga xosligida Xorazmda usta musavvirlar naqsh yuzasini novda- yo'l va g'uncha ,shuningdek ,geometrik naqshlar bilan to'ldirib, asosan, moviy rangli bo'yoqlar bilan naqsh kompozitsiyalarini yaratadilar.Farg'ona maktabi naqshlarida chetlari chiroyli qilib aylantirilgan , ranglar esa qizil va yashil bo'yoqlarning to'yingan tuslari bilan bo'yaladi .Toshkent maktabi naqshlarida ranglar koloritnig qat'iyligi ,naqsh





elementlari, ayniqsa, gullar, barglarga mehr bilan targ'il berish orqali ular jozibasi ta'minlanadi. Ularda bir xildagi ranglarning turli tuslarini qo'llashga ko'proq e'tibor qaratadilar.

Sharqning mashhur olimlaridan Abdulvafo al Buzjoniy (940-998) o'zining kitoblarida 20 ga yaqin geometrik naqshlar yechimi to'g'risida yozib qoldirgan. Bu kitoblarda girixlar yechimining ba'zi oson yo'llari tushuntirib o'tilgan. Bu kitob hozirda Parijdagi muzeylarning birida saqlanmoqda. Abdulvafo al Buzjoniy asarlarida girixlar haqida ma'lumot berilgan bo'lsada, ularning ko'pchiligini yechimi hali ham jumboqligicha qolgan. XYII asrga kelib girix san'ati juda kam ishlatiladigan bo'ldi. Girixchi ustalar nihoyatda kam qolgan, uni chizish qiyin bo'lganligi tufayli hamma ustalar ham chiza olmaganlar. O'sha davrlarda girix naqshini yaxshi bilgan ustalar yetuk ustalar bo'lib hisoblanganlar.

Girih kompozitsiyalarini chizishning ham o'z qonun-qoidalari bor. Girih kompozitsiyalarini qadimda ustalar turli qabariq sirlari ham osongina qo'llay olganlar. Oddiy girih naqshlarni tuzuvchi ustalarni girihkor, katta ustalar deb atashgan. Atoqli xalq ustalaridan usta Shirin Murodov, Toshpo'lat Arislonqulov, Abdulla Boltayevlar o'z ijodiy izlanshlari natijasida geometrik naqshlarining ko'pdan-ko'p nusxalarini yaratganlar. Ayniqsa, akademik usta Shirin Murodov yangi girih kompozitsiyalarini osonlikcha tuzib, o'z o'rnida ustalik bilan qo'llay olganlar. Girih naqshlarini tuzish islmiy naqsh kompozitsiyalarini tuzishdan ancha farq qiladi. Gulli girih murakkab deb ataluvchi naqsh turi. Gulli girih islmiy va geometrik naqsh elementlarining o'zaro savatsimon aralash to'qilishidan iborat. Odatda geometrik naqshlarni tuzilgach, shakl yuzalarini islmiy naqsh kompozitsiyalari bilan to'ydirilsa aralash-murakkab deb ataluvchi naqsh kompozitsiyalari hosil bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki xalq amaliy san'ati o'zining qadimiyligi, go'zallikka boyligi va jimjimadorligi bilan yuksak qadrlanib, munosib e'tirof etib kelinmoqda. Naqshlar buyumga devorga yoki qanday joylar bezatilishiga qarab tanlab olingandek go'yo, ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni bezab ularga mos naqsh- u nigorlarni tanlab olar ekanlar estetik zavq olish bilan birga ular orqali orzu umidlarini ifoda etganlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalq amaliy san'atida qo'llaniladigan naqsh elementlari, har bir shakl, gul va ranglar o'zining ramziy ma'nosi va mohiyatiga ega bo'lib asrlar osha yangi avlod yoshlariga o'zining sir - sinoatidan so'zlayotgadek savlat to'kib turganini ko'rishimiz mumkin.





ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bulatov S.S. O‘zbekiston xalq amaliy bezak sanati. Toshkent: "Mehnat", 1991.
2. Bularov S.S. Naqqoshlik. - Toshkent: "Fan va texnologiya". 2010.
3. Qodirxo‘jayev P. Badiiy bezak san‘ati. - Toshkent: "Iqtisod - moliya", 2008.
4. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. - T.: Iqtisod-moliya, 2007.
5. Mamurova D.I. Amaliy va bezak san‘ati "Durdona" nashriyoti. Buxoro - 2021.
6. Mamurova D.I, Sobirova T.R. Badiiy bezak san‘ati. "Durdona" nashriyoti. Buxoro,- 2018.

